



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 6 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 8, НОМЕР 6

LOOK TO THE PAST
VOLUME 8, ISSUE 6



ТОШКЕНТ-2025

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафасева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуридинович
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ШИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Сайнова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори, в.б.профессор,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий
педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозогистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Nilufar Djurayeva SOVET HOKIMIYATINING IJTIMOIIY - IQTISODIY SIYOSATIDA XOTIN-QIZLAR TASHKILOTLARINING MAQSAD-VAZIFALARI.....	5
2. Guldonga Taniyeva O'ZBEKISTON ZIYORAT TURIZMIDAGI O'ZIGA XOSLIK: O'TMISH VA BUGUN.....	15
3. Hikmatjon Avezov O'ZBEKISTONNING MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO'STLIGI BILAN ATROF-MUHIT HIMOYASI SOHASIDAGI HAMKORLIK TARIXI.....	20
4. Iskandar Samadov XORAZM XALQ SOVET RESPUBLIKASI (XXSR)DA YER-SUV MASALASI VA PAXTACHILIKNING QAYTA TIKLANISHI.....	27
5. Фируза Абдюсупова В ПОИСКАХ НЕИЗВЕДАННОГО: РУССКИЕ ЭКСПЕДИЦИИ И РАЗВЕДЫВАТЕЛЬНЫЕ ПОХОДЫ В ПАМИРЕ (XIX BEK).....	34
6. Nasiba Narzullayeva SOVET DAVLATI SIYOSATIDA XORIJDA TA'LIM OLGAN O'ZBEK XOTIN- QIZLARINING QATAG'ON QILINISHI.....	41
7. Istora Jo'rayeva XOTIN-QIZLAR MAVZUSINING YORITILISHIDA AYRIM MULOHAZALAR.....	50
8. Muslima Makhmudovna Bazarova THE ACTIVITY OF SHELTERS IN UZBEKISTAN.....	55
9. Diyora Chorshanbiyeva YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLAR SIYOSATINING SHAKLLANISHI.....	60
10. G'unchaxon Baxodirovna Alimova O'ZBEKISTONDA DINIY TA'LIM OLIISH SOHASI YO'NALISHLARI VA UNING S IFATINI OSHIRISHGA QARATILGAN ISLOHOTLAR.....	65
11. Mohira Matnazarova KO'CHMANCHI CHORVADORLAR HAYOTINING YOZMA MANBALARDAGI INTERPRETATSIYASI.....	71
12. Iroda Tishabayeva 1950–1970 YILLARDA O'ZBEKISTON MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALAR OVQATLANISHINI TASHKIL ETISH MASALALARI.....	76



Mohira Uktamovna Matnazarova,
Urganch davlat universiteti o'qituvchisi
e-mail: matnazarovamokhira4@gmail.com

КО'ЧМАНЧИ ХОРВАДОРЛАР ХАЙОТИНИНГ YOZMA MANBALARDAGI INTERPRETATSIYASI

For citation: Mohira U. Matnazarova. INTERPRETATION OF THE LIFE OF NOMADIC PASTORALISTS IN WRITTEN SOURCES. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 6, pp.71-75

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15806105>

ANNOTATSIYA

Ko'chmanchi chorvadorlar qadimgi davrning ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o'ringa ega bo'lganlar. Shu sababdan ular va ular bilan bo'lgan munosabatlar haqida yozma manbalarda ma'lumotlar saqlanib qolgan. Maqolada O'rta Osiyo hududida yashagan qabilalar haqidagi ma'lumotlar Old Osiyo, ahamoniylar, yunon, rim va xitoy manbalarida ham saqlanib qolganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. O'rta Osiyo hududidagi ko'chmanchi qabilalar haqida ahamoniylar davriga oid yozma manbalar – Behistun, Persopol va Naqshi Rustamdagi qoya toshlarda saqlanib qolgan.

Kalit so'zlar: chorvador, sak, massaget, ishkuza, suvyorgan, amirobod, Skunxa, qoyatosh yozuvlari, Naqshi Rustam, Doro I.

Махира Уктамовна Матназарова,

Преподаватель Ургенчского государственного университета
e-mail: matnazarovamokhira4@gmail.com

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЖИЗНИ КОЧЕВЫХ СКОТОВОДОВ В ПИСЬМЕННЫХ ИСТОЧНИКАХ

АННОТАЦИЯ

Кочевники-скотоводы занимали важное место в общественной и политической жизни древности. По этой причине сведения о них и отношениях с ними сохранились в письменных источниках. В статье приведены сведения о племенах, проживавших на территории Средней Азии, сохранившиеся в древнеазиатских, ахеменидских, греческих, римских и китайских источниках. Письменные источники о кочевых племенах на территории Средней Азии периода Ахеменидов сохранились на скалах Бехистуна, Персеполя и Нахши-Рустама.

Ключевые слова: пастух, сак, массагет, ишкуза, сувярган, амирабад, скунха, наскальные надписи, Накши Рустам, Дарий I.

Mohira Uktamovna Matnazarova,
Urgench State University, teacher,
e-mail: matnazarovamokhira4@gmail.com

INTERPRETATION OF THE LIFE OF NOMADIC PASTORALISTS IN WRITTEN SOURCES

ABSTRACT

Nomadic herders had an important place in the social and political life of ancient times. For this reason, information about them and the relationship with them has been preserved in written sources. The article provides information about the tribes that lived in the territory of Central Asia preserved in ancient Asian, Achaemenid, Greek, Roman and Chinese sources. Written sources about the nomadic tribes in the territory of Central Asia from the Achaemenid period are preserved on the rocks of Behistun, Persepolis and Nakhshi Rostam.

Key words: herdsman, sak, massaget, ishkuza, suvyorgan, amirabad, Skunkha, rock inscriptions, Naqshi Rostam, Darius I.

Dolzarbli:

Ko'chmanchi chorvadorlar qadimgi davrning ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o'ringa ega bo'lganlar. Shu sababdan ular va ular bilan bo'lgan munosabatlar haqida yozma manbalarda ma'lumotlar saqlanib qolgan. Ko'chmanchi chorvadorlar haqidagi eng dastlabki ma'lumot "Avesto"da uchraydi. "Avestoda ular "tur" deb atalib, turlar va eroniylar o'rtasidagi munosabatlar bayon qilingan. Bu voqealar Firdavsiyning "Shohnoma" asarida ham keltirilgan.

"Avesto" yaratilgan jamiyatda chorvachilik xo'jaligi yuqori mavqega ega bo'lgan. Shu sababli uning matnida chorvadorlarga alohida alqovlar berilgan.

"Avesto"ning "Yasht" qismida Axuramazda barcha hojat va tadbirlarga yo'l ko'rsatuvchi deb o'zining 20 ta muqaddas nomini keltiradi [1]. Shu muqaddas nomlarning ikkinchi "Chorvador"dir. Bu jihat ham chorvachilikning o'sha davrlarda juda ulug'langanligini ko'rsatadi.

"Avesto"da yozilgan turlar ko'chmanchi qabila bo'lib, saklarning ma'lum bir guruhi bo'lishi mumkin. Eronliklar va turlar o'rtasida ko'p marotaba janglar bo'lib o'tganligi haqida "Avesto"ning "Yasht", "Videvat" qismlarida bayon qilingan. Eronliklar va turlar o'rtasidagi jang ilk temir davrida, ya'ni mil. avv. X-VIII asrlarda ro'y bergan. "Avesto"da ifodalangan tarixiy jarayonlar Markaziy Osiyoning harbiy demokratiya davrini aks ettiradi.

O'rta Osiyo hududida yashagan qabilalar haqidagi ma'lumotlar Old Osiyo, ahamoniylar, yunon, rim va xitoy manbalarida ham saqlanib qolgan. Old osiyoliklar "ishkuza, saxi", ahamoniylar ularni "sak", qadimgi rim va yunon yozma manbalarida "massaget", "skif", xitoy yozma manbalarida "xu", "di", "dingling", arxeologik adabiyotlarda "andronova", "yog'ochband", "tozabog'yob", "suvyorgan", "amirobod", "quyisoy" madaniyatlari nomlari ostida uchraydi [2].

Metodlar:

Maqolada umumqabul qilingan ilmiylik, tarixiylik, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Mavzuni o'rganishda tarixiy manbalar va ilmiy-tadqiqot natijalaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari:

Old Osiyo yozma manbalari skif "ishkuza" tarzda bayon etilgan. Bu so'z Ossuriya podshosi Asarxaddon (mil. avv. 680 – 669-yy.)ning Shamash xudosiga murojaatida tilga olingan. U quyidagicha bayon qilingan: "Shamash, buyuk xudo, men sendan so'rayman, sen menga aniq ishonch bilan javob ber. Bartatua skiflar mamlakati shohi, Ossuriya podshosi Asarxaddonga ittifoq tuzish uchun elchi yubordi. Endi Ossuriya podshosi Asarxaddon hozir saroy haramidan malikani (skiflar shohi Bartatuaga) beryapti. Skiflar shohi Bartatua haqqoniy shartnoma tuzadimi? U Ossuriya shohi Asarxaddonga nisbatan halol, ishonchli bo'ladimi, Ossuriya shohi Asarxaddon tomonidan belgilangan (ishlarni) bajarishga rioya qiladimi va sodiqlik bilan bajaradimi? Sendek, buyuk xudo buni biladi. Ey, buyuk xudo Shamash, uning nutqlari buyuk xudoning talabi va so'ziga mosmi va ma'qullanadimi?" [6].

Bu ko'chmanchi qabilalar Ossuriya podsholigi davridan, ya'ni mil. avv. VII asrdan o'zlarining kuch-qudrati bilan qadimgi dunyo davlatlari ichida ma'lum bo'lganligini ko'rsatadi. Keyingi shu davrga oid yozma manba Asarxaddonning o'g'li Ashshurbanipal (mil. avv. 669 – 627-yy.) davriga oid. U Ashshurbanipalning solnomasi yozilgan silindrning 4 ustunida saqlanib qolgan: "Mening hukmronligimga bo'ysunishni rad etgan Sahi (sa-hi) boshliq (hazanu) Gaga o'g'illari

Sharati va Parixiyaning 75 ta kuchli shaharlarini ham zabt etdim va ularning o'ljalarini qo'lga kiritdim. Men ularni (o'zlarini) o'z qo'llarim bilan tiriklayin tutdim va poytaxtim Naynavoga olib keldim". Tadqiqotchilari V.V.Latishev fikricha, Saxi bu Geradot va Ahamoniy yozma manbalarida keltirilgan saklar bo'lishi mumkin.

O'rta Osiyo hududidagi ko'chmanchi qabilalar haqida ahamoniylar davriga oid yozma manbalar – Behistun, Persopol va Naqshi Rostamdagi qoyatoshlarda saqlanib qolgan. Ularda ko'chmanchi chorvadorlar – saklarning imperiyaga qaramligi bayon qilingan va tashqi qiyofalari bo'rtma tarzda tasvirlangan. Saklar Persopol saroy tasvirlarida uzun shim kiygan holda, ustida yoqasiz chakmon, belida belbog' va akinak bilan aks ettirilgan. Bosh kiyimlarining tepa qismi ba'zida uzun (cho'qqi) qilib, ba'zida qalpoqning uchi kalta bo'lib, dumaloq qilib yakunlangan va old tomonga qayriltirilib qo'yilgan holda tasvirlangan.

Behistun qoyatosh yozuvlari Doro I davrida yozilgan bo'lib, u Erondagi Kirmanshoh va Hamadon shahri o'rtasidagi yo'lda baland qoyatoshda yozilgan. Unda mil. avv. 523 – 521-yillardagi voqealar bayon etilgan. Yozuv uch tilda: qadimgi fors, elam va akkad tillarida bitilgan. Yozuvda shunday yozilgan: "Men – Doro, ulug' podsho, shahanshoh, mamlakatlar podshosi, Vishtasp o'g'li, Arshan nevarasi, Ahamoniy. Ahuramazda irodasi bilan quyidagi davlatlarni qo'limga kiritib, ularning podshosi bo'ldim: Fors, Elam, Bobil, Ossuriya, Arabiston, Misr, Lidiya, Moniya, Armaniston, Kappadokiya, Partava, Drangiana, Arya, Xvarizam, Baqtriya, Sug'diyona, Gandxara, Saka, Sattagadiya, Araxoziya, Maka. Hammasi bo'lib 23 davlat". Shoh Doro I davom etib, "Men Bobilda bo'lganimda, quyidagi davlatlar mendan ajralib chiqib ketganlar: Fors, Elam, Midiya, Ossuriya, Misr, Partava, Marg'iyona, Sattagodiya, Saka". Saklarning Doro I tomonidan bo'ysundirilganligi haqida ham bayon qilingan: "Podsho Doro aytadi: Keyin men jangchilar bilan saklar mamlakatiga bordim. Keyin saklar, cho'qqi qalpoq kiyib yuradiganlar, qarshi jangga chiqishdi. Dengizga kelgach, men jangchilarim bilan paromda narigi tomonga o'tdim. Keyin men saklarning bir qismini tor-mor keltirdim, boshqalari qo'lga olindi va menga zanjirlangan holda olib kelindi. Skunxa ismli yo'l boshchisini ham askarlarim asirga olib, menga olib kelishdi. Men ularga boshqa yo'l boshchi tayinladim, chunki bu mening xohishim edi. Ularning sardori Skunxa ismli odamni tutib, mening huzurimga keltirdilar. Mamlakat meniki bo'ldi". Tadqiqotchilar bu ma'lumotda keltirilgan dengizni Orol dengizi bo'lishi mumkin, degan fikrni ilgari suradilar. Behistun qoyatoshi tasvirlarida sak Skunxa cho'qqi qalpoqda aks ettirilgan. U Doro I tomonidan bo'ysundirilgan xalqlarning eng oxirida tasvirlangan. Bu xalqlar ichida faqat Skunxaning boshida qalpog'i bor, qolganlari bosh kiyimsiz tasvirlangan. Tadqiqotchilar fikricha, qo'zg'olon qilgan xalqlarning barchasining yo'l boshchisi o'ldirilgan. Shu sababdan ular bosh kiyimsiz bo'lishgan. Skunxaning o'rniga boshqa yo'l boshchi tayinlagan bo'lsa-da, uning jonini saqlab qolgan bo'lsa kerak [7].

Behistun qoyatosh suratlarida saklarning e'tiqodi masalasi ham quyidagicha bayon etilgan: "Podsho Doro aytadi: bu saklar g'ayridin edilar va Axura-Mazdaga e'tiqod qilishmasdi. Axura-Mazda sharofati bilan men ular bilan shunday muomalada bo'ldim, bu mening xohishim ham edi" [8].

Naqshi Rostamda ahamoniy podsholarining qabrlari qo'yilgan. Bu qabrlarning tashqi tomonida ularga qaram bo'lgan xalqlar, jangchilar va jang sahnalarining barelyef tasvirlari ishlangan. Naqshi Rostam Persopoldan 6 km shimolda joylashgan. Qabrlar atrofida Doro I ning so'zlari yozilgan. Unda quyidagilar bayon qilingan: "Men – Doro, ulug' podsho, shahanshoh, ko'p qabilalar, mamlakatlarning podshosi, keng sayhon yerlarning podshosi, Vishtasp o'g'li, Ahamoniy, fors, forsning o'g'li, oriylar urug'idan kelib chiqqan oriy. Fors viloyatidan tashqari quyidagi mamlakatlarni men bo'ysundirganman, menga xiroj to'lovchi bo'lgan, mening so'zimni ijro etgan, mening qonunimga asoslanib rivojlanayotgan: Midiya, Elam, Ariya, Baqtriya, Sug'diyona, Xorazm... Saka Xaumavarka, Saka Tigraxauda...dengizning narigi tomonidagi saklar" kabi xabarlar bitilgan. Bu manbani tadqiq qilgan olimlar sak qabilalarini – sak, Saka Tigraxauda, Saka Xaumavarka, Saka Tiay paradarayya, Saka Tiay para sugdam deb ajratadilar [9].

Yunon tarixchisi Geradotning "Tarix" asarida Eron ahamoniylari bilan massagetlar o'rtasida bo'lib o'tgan voqealar aks etgan. Ahamoniylar imperiyasining shimoli-sharqiy tomonini

ko'chmanchilar bosqinidan himoya qilishga harakat qilishgan. Saklarning o'sha davrda yuqori harbiy salohiyatga ega ekanligini yunon manbalari asoslaydi. Jumladan, Geradot Kir II ning harbiy yurishlarida unga qarshi turgan xalqlar haqida quyidagicha bayon qilgan: "Bobil, Baqtriya xalqi, saklar va misrliklar to'siq bo'lib turganlar" [5]. Shu maqsadda mil. avv. 530-yilda Kir (Kurush) II massagetlar ustiga yurish qiladi. Bu sana ham Bobil hujjatlarini o'rganish natijasida aniqlangan. Bobilga Kir II nomidan yuborilgan oxirgi hujjat 530-yilning 12-avgusti bilan imzolangan. Kambiz nomidan birinchi noma, 530-yilning 31-avgusti bilan imzolangan [3]. Bu esa Kir II ning massagetlar ustiga yurishi mil. avv. 530-yilning yozida ekanligini asoslaydi.

Knidlik Ktesiy asarida saklar haqida yozilgan dastlabki ma'lumotlar uchraydi. Ktesiy ularni mohir jangchi va kamonchi sifatida tilga oladi. Mohir jangchi sifatida ahamoniylar imperiyasi armiyasi tarkibida bo'lganligi sababli ular haqida ma'lumotlar berilgan. Knidlik Ktesiy qadimgi yunon tarixchisi bo'lib, u mil. avv. V asrning ikkinchi yarmi va IV asrning boshlarida yashagan. U Artakserks II saroyida tabib bo'lib ishlagan kezlarda ahamoniylarning saroy hujjatlari bilan tanishish imkoniga ega bo'lgan. U Eronda 17 yil asirlikda bo'lgan. Asirlikdan qaytib kelgach, eronliklar to'g'risida "Persika", "Eron haqida kitob", "Eron tarixi" kabi tarixiy asarlarni yozgan. Bu asarlar Fotiy va Diodor asarlarida saqlanib qolgan. Saklar haqidagi eng qadimiy ma'lumotlar ham uning asarida saqlanib qolgan. U saklarning malikasi Zarina haqida yozib qoldirgan. Zarina atrofdagi unga qarshi bo'lgan barcha qabilalarni bo'ysundirgan, ularni birlashtirib, yagona davlat tashkil qilgan.

Gerodot ahamoniylarning davlat boshqaruvi haqida ham yozib qoldirgan. Doro I ahamoniylar davlatini 20 ta satrapliklarga bo'lib boshqargan. Shundan 3 tasi O'rta Osiyo hududlari bilan bog'liq joylardir. Masalan, "Tarix" kitobida quyidagilarni o'qiydiz: Baqtriyaliklardan egllargacha bo'lgan xalqlar 300 talant soliq to'laganlar. Bu – o'n ikkinchi o'lka" [4]. "Saklar va kaspiylar 250 talant to'laganlar. Bu o'n beshinchi o'lka. Parfyanlar, xorasmiylar, sug'dlar va ariylar 300 talant to'laganlar. Bu o'n oltinchi o'lka".

Gerodot saklarning kiyim-boshi, harbiy qurollari haqida ham ma'lumotlar beradi, ya'ni "Saklar (skif qabilasi) uzun cho'qqili qalpoqlar kiygan. Ular keng shalvar kiyganlar, sak kamoni va xanjarlari bilan qurollanganlar. Bulardan tashqari ularda yana sagarislar, ya'ni ikki tig'li jangovar oyboltalar bo'lgan. Ushbu qabila (aynan, skif qabilasi) amyurgiya saklari, deb nomlangan. Forslar skiflarning hammasini saklar, deb ataydilar. Bu ma'lumotlar ahamoniylarning yozma manbalaridagi ma'lumotlarga mos keladi.

Ksenofont asarida ham saklarning jangchilari haqida yozib qoldirilgan. Uning ma'lumoticha, fors shohi turli xalqlarning vakillaridan bo'lgan chavandozlar uchun ot choptirish bo'yicha musobaqa uyushtirgan. Ot choptirish yo'lagining uzunligi 5 stadiy (1 stadiy 178 metr bo'lsa, u 890 metrni tashkil qilgan) bo'lgan. Musobaqa boshlangach, qatnashuvchilarning orasidan bir yosh sak ajralib chiqib, hammasini yarim yo'lda qoldirib ketgan va g'olib bo'lgan. Fors podshosi Sakga ot evaziga saltanatini berishni taklif qiladi, lekin u otni faqat "mard odamning rahmati" evaziga berishini aytib, taklifni rad etadi. Bu hikoyani Ksenofont Kir haqida yozayotganda aytib o'tgan.

Polibiy, Pliniy, Ptolomey asarlarida sak va massaget qabilalarining turlicha nomlari saqlanib qolgan. Ular yashagan hududlarning chegaralarini aniqlash uchun olimlar o'rtasida ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan. Massagetlar ittifoqi mil. avv. VII–V asrlarda tashkil topgan. Unga bir necha sak qabilalari kirgan. "Massaget" so'zi "maza-geta" – "ulug' getlar" yoki "mas-saka-ta" "katta saklar to'dasi" degan ma'nonini beradi.

Xulosa va takliflar:

Ko'chmanchilar asosan tabiatga moslashuvchanlik, erkinlik va mustaqillikni qadrlaydilar. Ularning hayoti ko'pincha mavsumiy migratsiya bilan bog'liq bo'lib, bu esa ularning chorva mollari va oziq-ovqat ta'minotiga ta'sir qiladi. Yozma manbalarda ko'chmanchilarning qishloq xo'jaligi va chorvachilikdagi tajribasi, shuningdek, ularning an'anaviy bilimlari va urf-odatlarini haqida ma'lumotlar mavjud.

Bundan tashqari, ko'chmanchi chorvadorlar o'zaro aloqalarini rivojlantirishda savdo-sotiq va madaniy almashuvning ahamiyatini ham ta'kidlaydilar. Ularning hayoti va madaniyati ko'plab omillarga, jumladan, geografik joylashuvga va tarixiy sharoitlarga bog'liq.

Xulosa qilib aytganda, ko'chmanchi chorvadorlar hayoti yozma manbalarda turli jihatlari bilan yoritilgan bo'lib, bu ularga xos bo'lgan dinamik va moslashuvchan hayot tarzini aks ettiradi. Ularning madaniyati va ijtimoiy tuzilishi tarixiy kontekstda o'rganilganda, insoniyat tarixidagi muhim bir qism sifatida ahamiyat kasb etadi. Shuni aytishimiz mumkinki, Strabon ham Gekatey ma'lumotlaridan foydalangan holda massagetlarni 4 ta guruhga ajratadi: tekislikdagi, botqoqlikdagi, orolchalardagi va tog'larda yashaydigan. Massagetlarning sharqiy chegarasini ko'rsatishda Strabon Eratosfen ma'lumotlaridan foydalanadi. U massagetlar Oks bo'ylab joylashganlar, Sug'diyonaning g'arbida, deb ko'rsatadi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Абдолниёзов Б., Исҳоқов М. Авесто ва қадимги чорвачилик. – Тошкент, 2008. – Б.60. (Abdolnizozov B., Ishokov M. Avesta and ancient animal husbandry. – Tashkent, 2008. – P.60.)
2. Эгамбердиева Н.А. Амударё ҳавзаси ҳудудларининг қадимги маданияти (мил. авв. VIII-мил. IV асрлар): Тарих фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. –Тошкент. 2021. – Б.137. Egamberdieva N.A. Ancient culture of the Amu Darya basin (VIII-IV centuries BC): Dissertation for the degree of Doctor of Historical Sciences (DSc). – Tashkent. 2021. – P.137.)
3. Гафуров Б.Г. Таджики. –Душанбе, 1989. – С.86. (Gafurov B.G. Tajik. - Monday, 1989. - P.86.)
4. Геродот. История. Том III, 92. (Herodotus. History. Volume III, 92.)
5. Геродот. Тарих, том I, 153. (Herodotus. History. Volume I, 153.)
6. <https://ru.wikipedia.org/ишқуза>
7. https://ru.wikipedia.org/wiki.Бехистунская_надпись. (Behistun inscription)
8. История Древнего Востока. Тексты и документы: Учеб. пособие/Под ред. В.И. Кузищина. — М.: Высш. шк., 2002. –С.397. (History of the Ancient East. Texts and documents: Study guide/Edited by V.I. Kuzishchin. — М.: Higher. school, 2002. –P.397.)
9. Kent R.G. Old Persian Grammar. Text, Lexicon. // American Oriental Series, vol.33. New Haven. 1953.

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 6 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 6

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 6

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000